



AKTUAR MOLIIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 02 | pp. 357-366 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

NEFT-GAZ KORXONALARI MOLIIYAVIY HOLATI VA INVESTITSION SALOHIYATI TAHLILI



Allamuradova Aziza G'ayratullayevna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston fond bozorida neft-gaz sektori korxonalarining investitsion salohiyati tahlil qilinadi. "O'zbekneftgaz" AJ misolida xalqaro kredit reytinglarining investitsion jozibadorlikka ta'siri va fond bozorida kompaniya aksiyalarining barqarorligi o'rganiladi. Shuningdek, kapital jalb qilish imkoniyatlari, xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish va fond bozorida likvidlikni oshirish strategiyalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Neft-gaz sektori, fond bozori, korporativ kredit reytingi, "O'zbekneftgaz" AJ, aksiyalar barqarorligi, obligatsiyalar, kapital jalb qilish, rentabellik.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida fond bozori va neft-gaz sektori o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, investitsion salohiyatning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Neft-gaz sanoati mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, energiya xavfsizligini ta'minlash, sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, eksport hajmini oshirish hamda davlat byudjetiga tushumlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tarmoqning rivojlanishi bevosita kapital qo'yilmalarga, xalqaro moliya institutlari va investorlar tomonidan moliyaviy barqarorlik, aktivlarning sifati va tarmoqning rivojlanish istiqbollari bo'yicha beriladigan baholarga bog'liq. Shu sababli, neft-gaz sohasi korxonalarining fond bozoridagi investitsion jozibadorligi ularga berilgan kredit reytinglari, moliyaviy hisobotlari, uglevodorod resurslarining hajmi va ishlatilish samaradorligi bilan chambarchas bog'liq.

2020-2022 yillarda "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan xalqaro fond bozori talablariga mos ravishda moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish hamda xalqaro reyting agentliklari tomonidan baholanish bo'yicha izchil va tizimli ishlar olib borildi. Xususan, "S&P", "Fitch Ratings" va "Moody's" kabi dunyoning yetakchi reyting agentliklaridan korporativ kredit reytingini olish maqsadida "DeGolyer & MacNaughton" tomonidan uglevodorod zaxiralari auditi o'tkazildi va "Ernst & Young" xalqaro auditorlik kompaniyasi tomonidan moliyaviy hisobotlarning mustaqil auditi amalga oshirildi. Ushbu baholash jarayonida 2017-2020 yillar uchun uglevodorod zahiralar, shuningdek, 2017-2021 yillarga oid konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarga (PRMS va MHHS'lari) muvofiq holda tahlil qilindi.

Tahlillar natijasida 2021-yilda "O'zbekneftgaz" AJ xalqaro reyting agentliklari tomonidan yuqori kredit bahosiga ega bo'ldi. Xususan, "S&P" va "Fitch Ratings"

agentliklari kompaniyaga "BB-" reytingini berib, "Barqaror" prognozi bilan baholadi. Ushbu reyting "O'zbekneftgaz" AJning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini aks ettirib, xalqaro investorlar uchun kompaniyaning moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini tasdiqlovchi muhim omil bo'ldi. 2022 yil 23-sentyabrda "Fitch Ratings" agentligi kompaniyaning suveren kredit reytingini "BB-" darajasida saqlab qolganligini tasdiqladi. Biroq, 2022 yil noyabr oyida "S&P" agentligi kompaniyaning reytingini "BB-" darajasida saqlagan holda, prognozni "Barqaror"dan "Negativ"ga tushirdi. Bu esa kompaniyaning moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq risklar ortayotganini, xususan, neft va gaz bozoridagi o'zgarishlar, xarajatlarning oshishi hamda investitsiya muhiti noaniqliklari hisobga olinganligini bildiradi [1].

Adabiyotlar tahlili

Bir qator tadqiqotlar neft-gaz sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlashda kapital bozorining ahamiyatini ta'kidlaydi. Jahon bankining (2023) hisobotida ta'kidlanishicha, fond bozoriga kirish kompaniyalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, korporativ boshqaruvni yaxshilash va moliyaviy shaffoflikni oshirish imkonini beradi. Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD, 2022) hisobotida aytilishicha, fond bozori holati va investorlarning ishonchi neft-gaz kompaniyalarining moliyaviy resurslarni jalb qilish qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bektemirov va boshq. (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqot energetika sektoridagi investitsion oqimlarning xususiyatlarini o'rganib, fond bozorining neft-gaz kompaniyalari qarorlariga ta'sirini tushuntiradi. Tadqiqot mualliflari barqaror moliyaviy hisobot, yuqori kredit reytingi va samarali risk boshqaruvi investor ishonchini oshirish va kapital oqimlarini ko'paytirish uchun muhim omillar ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF, 2022) tadqiqotlari fond bozoridagi ishtirok resurslarga boy mamlakatlarda iqtisodiy diversifikatsiyani rag'batlantirishini va barqaror o'sishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Neft-gaz kompaniyalarining investitsion jozibadorligini aniqlovchi asosiy omillardan biri ularning kredit qobiliyati hisoblanadi. Fitch Ratings (2024) va Moody's (2023) hisobotlarida davlat va korporativ kredit reytinglari energiya sektori kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga qanday ta'sir qilishi o'rganilgan. Unga ko'ra, "O'zbekneftgaz" AJ ning "BB-" reytingi kompaniyaning xorijiy investorlarni jalb qilish va fond bozorida obligatsiyalar chiqarish imkoniyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Bolotova va Voynikova (2018) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot rivojlanayotgan bozorlar sharoitida kredit reytinglarining investor xatti-harakatlariga ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yuqori reytingga ega bo'lgan kompaniyalar odatda past kredit stavkalariga ega bo'lib, uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlari kengroq bo'ladi va investorlar ishonchini oshiradi. Jahon bankining 2024 yilgi energiya sektori bo'yicha hisobotida ta'kidlanishicha, reytingning oshirilishi kompaniyaning fond bozoridagi qiymatini oshiradi va aksiyalarining narxini barqaror saqlashga yordam beradi.

Neft-gaz sanoatining tavakkalchilik darajasi ham xalqaro tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA, 2023) hisobotida ta'kidlanishicha, neft narxining tebranishi, geosiyosiy beqarorlik va qonunchilik o'zgarishlari neft-gaz kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga jiddiy ta'sir qiladi. Cheglakov (2024) tadqiqotida kompaniyalar investitsion jozibadorlikni saqlab qolish va moliyaviy

barqarorlikni oshirish uchun samarali risk boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishi kerakligi ta'kidlangan.

Savchuk (2019) tadqiqoti neft-gaz kompaniyalarida rentabellik ko'rsatkichlarini o'rganib, ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo'lgan, moliyaviy qarzi kam va barqaror daromad manbaiga ega korxonalar aksiyalari fond bozorida yuqori baholanishini ta'kidlaydi. Bu xulosalar Ernst & Young (2023) investitsion prognozlarida ham tasdiqlangan bo'lib, mustahkam moliyaviy ko'rsatkichlar kompaniyaning aksiyadorlar uchun jozibadorligini oshirishini ko'rsatadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish neft-gaz sektori uchun muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC, 2023) tadqiqotida ta'kidlanishicha, barqaror qonunchilik muhiti, rivojlangan moliyaviy infratuzilma va mustahkam korporativ boshqaruv xorijiy investitsiyalar jalb qilish uchun asosiy shartlar hisoblanadi. Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB, 2023) hisobotida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan rag'batlantiruvchi choralalar, jumladan, soliq imtiyozlari va davlat-xususiy sheriklik loyihalari, neft-gaz kompaniyalari uchun investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilishi aytilgan.

Nazarova va Pavlovich (2019) tadqiqotida hukumatning energetika sektoridagi shaffoflikni oshirish va davlat aralashuvini kamaytirish orqali fond bozorida investor ishonchini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Bu tavsiyalar OECD Energetika Siyosati Sharhi (2023) hisobotida ham aks etgan bo'lib, investitsion muhitni yaxshilash uchun islohotlarni davom ettirish muhimligi ta'kidlangan.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston fond bozori neft-gaz sektori korxonalari uchun muhim kapital jalb qilish manbalaridan biri bo'lib, ularning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini baholashda muhim rol o'ynaydi. "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan taqdim etilgan 2024 yil 30 iyunga qadar bo'lgan davr uchun oraliq qisqartirilgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot kompaniyaning moliyaviy holati va faoliyatining uzluksizligini ta'minlash qobiliyatiga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu hisobot fond bozoridagi investorlarga kompaniyaning kredit qobiliyati, likvidligi va kelgusi yillardagi barqarorligi haqida aniq tasavvur berishga yordam beradi.

Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, kompaniyaning 2024 yil 30 iyundagi joriy majburiyatlari joriy aktivlardan 4 992 milliard so'mga ko'p bo'lgan, bu esa likvidlik bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligini ko'rsatadi. 2023 yil 31 dekabr holatiga ko'ra, aksincha, joriy aktivlar joriy majburiyatlardan 5 932 milliard so'mga yuqori bo'lgan, bu esa o'tgan yilga nisbatan moliyaviy balansning salbiy o'zgarishini aks ettiradi. Biroq, kredit beruvchilar kompaniyaning moliyaviy shartnomalar bo'yicha majburiyatlarini buzishi mumkinligi haqida oldindan ogohlantirilgan va ularning ba'zilar ushbu cheklovlardan voz kechish (veyver) to'g'risida qaror qabul qilgan. Bu esa kompaniyaning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish imkonini bergan va kredit shartlarining buzilishini oldini olgan.

Fond bozori nuqtayi nazaridan, "O'zbekneftgaz" AJ aksiyalari va obligatsiyalari investitsion jozibadorligi kompaniyaning likvidlik holati, qarz yuklamasi va kelgusidagi daromad olish qobiliyati bilan bog'liq. Xalqaro reyting agentliklarining baholashlari (Fitch Ratings, S&P, Moody's) kompaniyaning kredit qobiliyatiga bo'lgan ishonch darajasiga

bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar kompaniya mavjud qarz majburiyatlarini samarali boshqarib, pul oqimlarini ijobiy darajada ushlab tursa, uning qimmatli qog'ozlari investorlar uchun barqaror daromad manbai sifatida qiziqish uyg'otishi mumkin. Jamiyatning 2021-2022 yillardagi asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari qo'yidagi jadvalda keltirilgan (MHXS bo'yicha).

Kompaniyaning rentabellik darajasi 2020 yilda 31,5% bo'lib, 2021 yilda 14,1% gacha keskin pasaygan. Bu asosan operatsion xarajatlarning oshishi, daromad tarkibining o'zgarishi va rentabellikni ta'minlash uchun qo'shimcha investitsiyalar talab qilinganligi bilan izohlanadi. 2022 yilda bu ko'rsatkich 15,0% ga oshgan bo'lsa ham, 2020 yil darajasiga yetmagan. Rentabellikning past bo'lishi kompaniyaning foyda olish qobiliyatining zaiflashayotganini va xarajatlarni optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

1-jadval.

“O'zbekneftgaz” AJning asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil
Neft, gaz, neft mahsulotlari va neft-kimyo mahsulotlarini sotish	11 391	12 142	13 305
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	487	153	136
Jami daromadlar	11 878	12 296	13 441
Xarid qilingan neft, neft mahsulotlari va boshqa materiallar qiymati	362	447	1 578
Ishlab chiqarish xarajatlari	1 965	2 311	2 893
Soliqlar (daromad solig'idan tashqari)	1 787	2 094	2 370
Eskirish va amortizatsiya	2 494	2 749	2 316
Debitorlik qarzlarining qadrsizlanishi	20	1 329	144
Kreditlarning qadrsizlanishi	-	-	44
Umumiy va ma'muriy xarajatlar	493	729	619
Mahsulotlarni tashish va sotish xarajatlari	156	161	296
Neft va gaz zaxiralarini qidirish bilan bog'liq xarajatlar	247	248	406
Asosiy vositalarni hisobdan chiqarishdan ko'riladigan daromad (zarar), netto	300	2	121
Boshqa operatsion xarajatlar	292	163	230
Jami operatsion xarajatlar	8 076	10 229	10 775
Operatsion faoliyatdan foyda (zarar)	3 802	2 067	2 666
Moliyaviy daromadlar	361	263	696
Boshqa nooperatsion daromad	513	111	1 190
Valyuta kursi farqidan ko'riladigan zarar (foyda), netto	437	210	259
Moliyaviy xarajatlar	645	520	1 487
Soliq to'lagunga qadar foyda (zarar)	3 594	1 712	2 806
Daromad solig'i	693	392	320


Sof foyda (zarar)	2 901	1 321	2 486
Sanoat mahsulotlarining amaldagi narxlardagi qiymati, mlrd. so'm		11 975,4	11 517,1
Rentabellik darajasi, %	31,5%	14,1%	15,0%
Ishlab chiqarish samaradorligi (%)	32,0%	16,8%	19,8%
Xarajatlar ulushi (%)	68,0%	83,2%	80,2%

Manba: <https://www.ung.uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ishlab chiqarish samaradorligi 2020 yilda 32,0% bo'lib, 2021 yilda 16,8% gacha pasaygan. Bu, birinchi navbatda, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi va moliyaviy majburiyatlarning ortishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2022 yilda bu ko'rsatkich 19,8% ga ko'tarilgan, bu esa kompaniyaning samaradorlikni oshirish yo'lida harakat qilganligini bildiradi. Biroq, 2020 yil darajasiga yetish uchun xarajatlarni yanada kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish talab etiladi.

2022 yil yakunlariga ko'ra "O'zbekneftgaz" AJning sof foydasi 2 486,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Jamiyat bo'yicha 2022 yilda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlarni) hajmi taqqoslama narxlarda 11 266,2 mlrd so'mni, (prognozga nisbatan 97,5 foiz), amaldagi narxlarda 11 517,1 mlrd so'mni (99,7 foiz) tashkil etgan.

2020 yilda jami operatsion xarajatlar jami daromadga nisbatan 68,0% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 83,2% gacha oshgan. Bu esa kompaniyaning xarajatlar bosimi ostida qolganligini va foyda marjasining kamayganligini anglatadi. 2022 yilda bu ko'rsatkich 80,2% gacha pasaygan bo'lsa ham, hali ham yuqori darajada qolmoqda. Xarajatlarning yuqori ulushi kompaniyaning moliyaviy barqarorligini xavf ostiga qo'yadi, shuning uchun xarajatlarni samarali boshqarish, resurslardan tejamkor foydalanish va operatsion samaradorlikni oshirish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish zarur.



1-rasm. "O'zbekneftgaz" AJning daromadlari tahlili, mlrd.so'm

Manba: <https://www.ung.uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jamiyatning daromadlari asosiy faoliyatdan olingan daromadlar, asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar va moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hisobiga shakllanadi.

Jamiyatning 2025-yildagi eng muhim vazifalaridan biri yangi konlarni izlash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlari dasturini ishlab chiqish bo'lib, mazkur vazifa uglevodorod xom ashyosi zaxiralari va respublika bo'yicha tabiiy gaz qazib olish hajmini ko'paytirishda yordam beradi. Belgilangan vazifalarni bajarish uchun Jamiyat o'zining tashkiliy, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslariga egadir.

2021-yilning noyabr oyida Moliya vazirligi ko'magida Jamiyat tomonidan ilk bor 700 million AQSH dollari qiymatidagi yevroobligatsiyalar 7 yil muddatga 4,75 foizda London fond birjasiga muvaffaqiyatli joylashtirdi. Ushbu yevroobligatsiyalar Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya hamda Yevropa va Osiyo mamlakatlaridan 120 dan ortiq sarmoyadorlar tomonidan sotib olindi.

Maslahatchilar jamoasi tomonidan loyihani amalga oshirishning 3 bosqichi belgilangan "Yo'l xaritasi" tayyorlangan: 1-bosqich: IPOga tayyorligini dastlabki baholash; 2-bosqich: Qarz portfeli tahlil qilish va qayta yo'naltirish; 3-bosqich: IPOga tayyorgarlik ko'rish.

IPOga chiqish aksiyadorlik kapitali likvidligini oshishiga ta'sir qilish bilan bir vaqtda joriy xarajatlarni qoplash, qarz yuklamasini kamaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yirik loyihalarni amalga oshirish va boshqa xarajatlarga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan uzoq muddatli moliyaviy resurslarni tashqaridan jalb qilish imkoniyatini yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24 martdagi PQ-102- son qaroriga muvofiq, 2023 yilda "O'zbekneftgaz" AJning 2 foiz aksiya paketlari "bitta aksiya — bitta lot" tamoyili asosida mahalliy fond bozorida xalq IPOsini o'tkazish tartibi asosida ommaviy savdolar orqali xususiylashtirilishi belgilangan.

"O'zbekneftgaz" AJning uzoq muddatli va qisqa muddatli qarz majburiyatlarini aks ettiradi. Kompaniyaning yirik qarz portfeli xalqaro valyutalarda (AQSh dollari, yevro, yuan) hamda milliy valyutada shakllangan bo'lib, asosiy qarz muddati 2024-2031 yillar oralig'iga to'g'ri keladi.

2-jadval.

2023-yil 31 dekabr holatiga "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan olingan kreditlar va obligatsiyalar bo'yicha moliyaviy majburiyatlar

Mablag' turi	Foiz stavkasi	To'lov muddati	Jami qarz (mlrd so'm)	Uzoq muddatli	Qisqa muddatli
Chiqarilgan yevroobligatsiyalar					
700 mln AQSh dollari	4,75%	Noyabr 2028	8 611	8 611	51
Olingan kreditlar va qarz mablag'lari					
1 200 mln AQSh dollari	6M SOFR + 3,5%	Iyun 2031	8 855	8 855	1 491
500 mln AQSh dollari	6M LIBOR + 3,61%	Iyun 2031	3 687	3 687	620
360 mln AQSh dollari	6M SOFR +	Dekabr	2 714	2 714	378

	3,25%	2029			
280 mln AQSh dollari	6M LIBOR + 1,15%	Iyun 2031	1 903	1 903	296
1 600 mln yuan	SHIBOR + 0,5%	Oktabr 2031	1 894	1 894	126
250 mln yevro	3M EURIBOR + 4,5%	Noyabr 2025	1 493	1 493	1 551
100 mln AQSh dollari	6M SOFR + 4,25%	Noyabr 2026	1 212	1 212	10
200 mln AQSh dollari	3M SOFR + 3,75%	Dekabr 2025	1 206	1 206	1 236
100 mln AQSh dollari	6M LIBOR + 1,15%	Iyun 2031	682	682	106
190 000 mln so'm	18%	Avgust 2026	158	158	33
10 mln AQSh dollari	9%	Avgust 2026	103	103	21
98 000 mln so'm	22%	Sentabr 2026	86	86	10
5 mln yevro	10%	Fevral 2025	23	23	46
50 mln AQSh dollari	10%	Dekabr 2024	-	-	619
14 mln yevro	10%	Iyul 2024	-	-	197
14 mln yevro	3M EURIBOR + 4,85%	Iyul 2024	192	-	-
57,87 mln AQSh dollari	2,0%	Dekabr 2024	-	-	182
200 000 mln so'm	24%	Iyun 2024	-	-	132
10 mln AQSh dollari	11,25%	Avgust 2024	-	-	124
10 mln AQSh dollari	13%	Iyul 2024	-	-	123
511 657 mln so'm	14%	Iyul 2024	-	-	105
8,4 mln AQSh dollari	9,5%	Oktabr 2024	-	-	104
100 000 mln so'm	26%	Mart 2024	-	-	100
464 879 mln so'm	14%	Iyul 2024	-	-	96
40 mln yevro	1,9%	Noyabr 2024	-	-	86
75 000 mln so'm	21%	Avgust 2024	-	-	76

75 000 mln so'm	21%	Avgust 2024	-	-	76
316 267 mln so'm	16%	Avgust 2024	-	-	73
57 500 mln so'm	24%	Fevral 2024	-	-	58
Boshqa qarzlار			-	-	343
Jami qarz mablag'lari			32 627	23 966	8 661

Manba: <https://www.ung.uz/shareholders/reports/11/sub/28/1>

Ushbu qarz majburiyatlarini samarali boshqarish kompaniyaning fond bozoridagi jozibadorligini oshirish va investitsion salohiyatini mustahkamlash uchun muhim omil hisoblanadi.

"O'zbekneftgaz" AJ 2024 yilda o'z moliyaviy majburiyatlari bo'yicha bir qancha muhim kelishuvlarni amalga oshirdi, bu esa kompaniyaning fond bozoridagi investitsion jozibadorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. Xususan, "O'zbekiston Transport Gaz" (UTG) va "Uz-Kor Gas Chemical" bilan amalga oshirilgan bitim hamda Air Products bilan tuzilgan shartnoma kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va aktivlarini optimallashtirishga qaratilgan.

2023-yil 31-dekabrgacha bo'lgan moliyaviy hisobotga ko'ra, "O'zbekneftgaz" AJ balansida 9 143 milliard so'mlik "kompensatsiya aktivlari" va 9 158 milliard so'mlik "moliyaviy kafolatlar" majburiyatlari aks ettirilgan edi. 2024 yilda ushbu aktivlar UTG aksiyalarining 46,8% ulushini sotib olish orqali to'liq qoplanib, kompensatsiya aktivlari hisobdan chiqarildi. Xarid narxi 10 022 milliard so'm bo'lib, bu balansdan chiqarilgan aktivlardan 668 milliard so'mga yuqori bo'lgani sababli ushbu farq moliyaviy daromad sifatida tan olindi. Shu bitim doirasida 2024 yilning birinchi yarmida "O'zbekneftgaz" AJ Uz-Kor Gas Chemical kompaniyasiga oldin berilgan 344 million AQSh dollari miqdoridagi subordinatsiyalangan kredit va unga hisoblangan 244,3 million AQSh dollari miqdoridagi foizlarni UTG aksiyalarini sotib olish uchun yo'naltirdi. Natijada, kompaniyaning to'lanmagan moliyaviy majburiyatlari 2 064 milliard so'mni tashkil etdi va uning muddati 2025 yil 31 dekabrga kechiktirildi.

2023 yil may oyida "O'zbekneftgaz" AJ va Air Products Netherlands Gases B.V. o'rtasida yirik bitim imzolandi, unga ko'ra Air Products kompaniyasi GTL zavodiga tegishli aktivlarni 1 milliard AQSh dollariga (12 555 milliard so'm) sotib olishga kelishib oldi. 2023 yil yakuniga qadar "O'zbekneftgaz" AJ ushbu summaning 900 million AQSh dollarini (11 105 milliard so'm) allaqachon olgan, qolgan 100 million AQSh dollari (1 255 milliard so'm) esa huquqiy ro'yxatdan o'tkazish va aktivlar ustidan egalik huquqini rasmiy ravishda o'tkazish jarayonlari tugallangandan so'ng to'lanishi rejalashtirilgan.

"O'zbekneftgaz" AJ aksiyadorlik kapitali va dividend to'lovlari kompaniyaning fond bozoridagi investitsion jozibadorligi va investorlar uchun barqaror daromad manbai sifatidagi ahamiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. 2024 yil yanvar oyida kompaniya 1 955 milliard so'm miqdorida dividend e'lon qilgan bo'lib, bu investorlar uchun kompaniyaning daromadlilik darajasini aks ettiradi. Dividend to'lovlari

investorlarning kompaniyaga bo'lgan ishonchini oshirish va uning qimmatli qog'ozlariga talabni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

3-jadval.

"O'zbekneftgaz" AJ moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili¹

Ko'rsatkichlar (milliard so'mda)	30-iyun 2024	30-iyun 2023
1-yanvar holatiga	29 002	24 472
Qo'shma va assotsiatsiyalashgan korxonalar foydasidagi ulush (netto)	1 288	883
E'lon qilingan dividendlar	(2 492)	(88)
Valyuta kursi bo'yicha qayta hisoblash	437	554
Assotsiatsiyalashgan kompaniyaga qo'shilgan badal	10 453	-
Boshqa	32	-
30-iyun holatiga	38 720	25 821

Manba: <https://www.ung.uz/shareholders/reports/11/sub/28/1>

Biroq, 927 milliard so'm miqdoridagi dividend mablag'lari aksiyadorning qaroriga ko'ra kompaniyaning ixtiyorida qoldirilgan va ushbu mablag'lar geologik-qidiruv ishlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Bu qaror kompaniyaning uzoq muddatli investitsion strategiyasi va kelajakda uglevodorod zaxiralarini kengaytirish bo'yicha rejalari borligini bildiradi. Shuningdek, ushbu qaror asosida kompaniyaning ustav kapitali qo'shimcha oddiy aksiyalar emissiyasi orqali oshiriladi, bu esa aksiyadorlarning kompaniyadagi ulushlarini kengaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, 2024 yilning dastlabki olti oyida kompaniya 242 milliard so'm miqdorida dividend to'lagan, bu esa kompaniyaning dividend siyosatida muvozanatni saqlashga harakat qilayotganini ko'rsatadi. Bir tomondan, investorlarga dividend to'lovlarini ta'minlash orqali aksiyalarning investitsion jozibadorligini oshirish, boshqa tomondan esa kapitalni saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida qisman o'z mablag'larini reinvestitsiya qilish kompaniyaning strategik yondashuvi sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa

"O'zbekneftgaz" AJ tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar kompaniyaning barqaror rivojlanishi va investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilganligini ko'rsatmoqda. 2024 yilning birinchi yarmida kredit va qarz mablag'larining kamayishi, foiz xarajatlarining pasayishi hamda valyuta kursi farqlarining kamayishi kompaniyaning moliyaviy barqarorligini yaxshilashga xizmat qilgan. UTG va Uz-Kor bilan amalga oshirilgan bitim kompaniyaning gaz transporti infratuzilmasidagi ishtirokini kengaytirib, aktivlar portfelini mustahkamlashga yordam berdi, shuningdek, kredit majburiyatlarining uzoq muddatli kechiktirilishi qisqa muddatli likvidlik bosimini kamaytirishga imkon berdi. Air Products bilan kelishuv esa kompaniyaning xalqaro hamkorlik doirasida yangi investitsiyalar jalb qilish qobiliyatini oshirib, qo'shimcha likvidlik manbaini yaratishga xizmat qildi.

Umuman olganda, kompaniya 2023 yildagi qarz yuklamasini kamaytirish bo'yicha sezilarli natijalarga erishgan, mavjud resurslarni samarali boshqarish orqali investorlar

¹ <https://www.ung.uz/shareholders/reports/11/sub/28/1>

uchun ishonchli investitsion muhit yaratishga qaratilgan strategiyani davom ettirgan. Biroq, fond bozoridagi raqobatbardoshlikni saqlab qolish va investorlarni jalb qilish uchun kredit siyosatini yanada takomillashtirish, aktivlarni optimallashtirish hamda xalqaro moliyaviy talablar va standartlarga muvofiq ishlash talab etiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Elektron resurs: <https://www.ung.uz/shareholders/reports/11/sub/28/1>
2. World Bank. (2023). Energy Investment Report. Retrieved from <https://documents1.worldbank.org>
3. OECD. (2022). Energy Sector Investment and Market Liberalization. Retrieved from <https://www.oecd.org>
4. International Monetary Fund (IMF). (2022). Stock Market Participation and Economic Diversification in Resource-Rich Countries. Retrieved from <https://www.imf.org>
5. Fitch Ratings. (2024). Sovereign and Corporate Credit Ratings in Emerging Markets. Retrieved from <https://www.fitchratings.com>
6. Moody's. (2023). Oil and Gas Industry Credit Risk and Rating Analysis. Retrieved from <https://www.moody.com>
7. Bektemirov, A. et al. (2023). Investment Flows in the Energy Sector and Stock Market Influence. ResearchGate.
8. Bolotova, E. & Voynikova, G. (2018). The Role of Credit Ratings in Investment Decision-Making in Emerging Markets. Azimut Scientific Research: Economics and Management, 7(4), 66-69.
9. International Energy Agency (IEA). (2023). Energy Sector Financial Risks and Market Volatility. Retrieved from <https://www.iea.org>
10. Cheglakov, K. (2024). Financial Risk Management in Oil and Gas Enterprises. Udmurt State University.
11. Central Bank of Uzbekistan. (2023). Annual Financial Report on the Performance of State-Owned Enterprises. Retrieved from <https://cbu.uz>
12. Savchuk, O. (2019). Modern Approaches to Financial Performance Analysis in Oil and Gas Companies. Economic Consultant, 1(25), 5-9.
13. Ernst & Young. (2023). Investment Outlook for the Oil and Gas Industry. Retrieved from <https://www.ey.com>
14. International Finance Corporation (IFC). (2023). Foreign Direct Investment in the Energy Sector: Trends and Challenges. Retrieved from <https://www.ifc.org>
15. Asian Development Bank (ADB). (2023). Energy Sector Development and Public-Private Partnerships. Retrieved from <https://www.adb.org>
16. Nazarova, Y. A. & Pavlovich, V. E. (2019). Financial Stability Analysis and Methods of Strengthening in Oil and Gas Companies. Meridian Scientific Electronic Journal, 6, 21-23.
17. OECD Energy Policy Review. (2023). Structural Reforms for Investment-Friendly Business Environment in the Oil and Gas Industry. Retrieved from <https://www.oecd.org>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

